

**SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATINI UMUMTA'LIM
MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK
MUAMMO SIFATIDA**

*Buxoro inavatsiyalar universiteti
magistri Ibragimov Sanjar Saidovich*

Jamiyat taraqqiyotida tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy, siyosiy, madaniy islohotlar amalga oshirilmoqda. Hayotimizga, faoliyatimizga globallashuv jarayoni tez sur'atlar va shiddat bilan kirib kelmoqda. Bunday sharoitda o'z bilimi, kuchi, imkoniyatlariga tayanadigan, xalq, mamlakat manfaatlarini o'z manfaatlari bilan uyg'un holda ko'ra oladigan, jahon hamjamiyatligida ro'y berayotgan hodisalarini o'ta xushyorlik, sezgirlik, qat'iyat va mas'uliyat bilan ko'ra oladigan insonlarni, boshqacha aytganda intelektual va axloqiy salohiyati yuksak, ya'ni ma'naviy-axloqiy madaniyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog'i hamda o'zida yaxlit tizimni mujassam etmog'i lozim. Bu tizim markazida ma'naviyat, axloq-odob, madaniyat kabi o'lmas qadriyatlar turmog'i lozim..." chunki "**ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.**" O'zbekiston istiqlolga erishganidan keyin ma'naiy merosimizni o'rganishimiz uchun keng imkoniyatlar ochildi. Sobiq kommunistik mafkura tufayli asrlar davomida o'zligimizni ifodolovchi milliy urf-odat, qadriyatlar va ularning mazmunini o'rganish borasida muayyan to'siqlar mavjud edi. Natijada odamlar orasidagi mahr-oqibat, sadoqat, o'zaro hurmat, ishonch, insoniylik kabi eng muqaddas qadriyatlarni avloddan-avlodga etkazish imkoniyatlari bir qadar kamaygan edi. Endilikda, asrlar mobaynida xalqimiz avaylab kelayotgan umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklash va boyitish garoitlari vujudga keldi.

Mazkur muammo bir guruh faylasuf, tarihchi, adabiyotshunos, pedagog, psixolog olimlar ma'naviy va yosh avlodni ma'naviyatli etib tarbiyalashga doir qator tadqiqotlar olib bordilar.

Burlardan O.Musurmonova, Z.G'ofurov, E.YUsupov, J.Tulenov, T.Mahmudov, M.Imomazarov, K.Nazarov, A.Erkaev, A.Ibrohimov, N.Jo'raev, E.Umarov, M.Abdullaev, SH.Qurbanov, S.Nishonov, S.Ochilov, M.Quronov va boshqalarning tadqiqotlari diqqatiga sazovor.

E.YUsupov "Ma'naviyt - inson axloqi va odobi, bilimlari iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyo qarashi mafkuraviy qarashlarining uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobq ta'sir etadigan mushtarak tizimdir", deb

ta’rif berish yuilan birga ma’naviyatning asosiy mezonlarini axloq-idrok, mas’uliyat kabilardan iborat deb ko‘rsatadi.

T.Mahmudov tomomnidan olib borilgan tadqiqotlarda ham asosiy urg‘u shaxs ma’naviyati, uni shakllantirish jarayonida aks etuvchi xolatlarga alohida urg‘u beriladi. Muallif “ma’naviyati” tushunchasini kuyidgicha talqin etadi: “Ma’naviyati shaxs va millatning “aqli, qalbi”ni ifoda etadign, tarix taqozosiga binoan uning turli tomonlari namoyon bo‘ladigan, tabiat, jamiyat va insonning insoniyashuv darajasini bildiradigan ruhiy idrok, ziyrak qalb olamidir”.

M.Abdullaev va E.Umarovlar esa ma’naviyatning tarkibiy qismlarini axloqiy-ruhiy fazilatlar, fikrlar va xatti-xarakatlarning g‘oyaviy-hissiy ulug‘vorligi, go‘zallik tushunchasi va go‘zallik tuyg‘usi, bolalar, keksalar, bemorlar, muhtojlarga rahm-shafqat, hamdardlik ko‘rsatish, ularga ijtimoiy g‘amxurlik ko‘rsatish; aql, bilim, fan, ijod, haqiqatga intilish; ekologik dunyoqarash, tabiatga oqilona munosabatda bo‘lish mas’uliyati kabilar, - deb ta’riflaydilar.

E.Umarov va M.Abdullaevlar ma’naviyatning yuqoridagi tarkibiy qismlarini ta’kidlab o‘tish bilan birga "ma’na“iyatsizlik" kabi insoniy g‘ayriinsoniy xatti-harakatlar bo‘lib, har bir inson bunday xudbin maqsadlar yo‘lida harakat qilayotganlarga qarshi kurashishi kerakligini ham uqtirib o‘tganlar. Bunday aksilma’naviy xatti-xarakatlarga: buzg‘unchi g‘oyalarga asoslangan jinoyatchilik faoliyati, mehnat intizomini buzish holatlari, oilaviy turmush va maishiy munosabatlardagi noaxloqiy xatti-xarakatlar, ekologik xavfsizlikni buzishga qaratilgan intilishlar, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish hamda uning natijalaridan g‘ayriinsoniy maqsadlarda foydalanish va boshqalar kiritiladi.

Mualliflar o‘z qrashlari bilan ma’naviyat sohasida tadqiqot ishi olib borgan boshqa olimlardan ancha ilgarilab ketadi.

M.Quronov esa o‘zbek halqining milliy tarbiyasi o‘ziga xos xususiyatlar va taraqqiyoti, milliy tarbiya mezonlari, ta’lim, shuningde maktab tarbiya tizimining milliy-tarbiyaviy imkoniyatlari hamda uni isloh qilish yo‘nalishltari, maktab, oila va mahallaning milliyni tashkil etishdagi hamkorligi, shqituvchini milliy tarbiyaviy jarayonga tayyorlash masalalarini shaxs ma’naviyatini shakllantirish nuqtai naridan tadqiq etadi.

O,Musurmonova tomonidan olib borilganilmiy taqiqotning asosiy yo‘nalishi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida ma’naviy madaniyatni shakllantirish muammosiga qaratilgan bo‘lib , unda o‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, muxim ta’sir kuchiga ega bo‘lgan omillar, o‘quvchi ma’naviyatini shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar xususida so‘z yuritiladi.

Ma’naviy axloqiy madaniyat negizida o‘quvchida insonning qiziqishlarini ko‘ra bilash , his etish, milliy-ma’naviy madaniyat manbalarini o‘rganish, o‘zligini

anglashga bo‘lgan extiyoj qaror topadi. SHuningde mehnatning inson hayotidagi o‘rnini to‘g‘ri tushunish, insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon, e’tiqod, milliy qadriyatlarni e’zozlash, Vatanga muhabbat, sadoqat, jamiyat, xalq manfaatlarini o‘z manfaatlaridan yuqori qo‘yish, ota-onasini, qarindosh-urug‘lar va boshqalarga muruvvatli, sahovatli bo‘lish kabi ma’naviy madaniyatilikning muhim belgilari tarkib topadi.

SHunday qilib o‘zbek-pedagog olimlari tomonidan davr talablari asosida ma’naviy, axloqiy, siyosiy, estetik, huquqiy va x.k. yoshlarning ma’naviyatini shakllantirish muammosi muayyan tarzda tadqiq etilib risolalar, o‘quv metodik qo‘llanmalar yaratilganligining guvohi bo‘ldik.

Endi shaxs axloqiy madaniyati tushunchasi, uni ng mohiyati, tuzulishi va funksiyalari to‘g‘risida fikr yuritamiz. Fuqarolik jamiyati shaxsining ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish masalasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, o‘z mohiyati bilan nazariy va amaliy tahlilni talab etadi. Buning uchun, avvalo, “Shaxs”, “Ma’naviyat”, “Axloq”, “Madaniyat” tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirib, so‘ngra “shaxs ma’naviy-axloqiy madaniyati”, gap iborasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb (o‘ylaymiz) tushunamiz.

Ma’naviyatning mohiyatini birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov to‘liq ta’riflab: “Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustaxkamlaydi, vojdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman”, deb ta’kidlagan.

Ma’naviyatning mohiyati shu qadar chuqur, shu qadar cheksizki, uni o‘lchab ham, poyoniga etib ham bo‘lmaydi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida ma’naviy kamolot va jamiyat ehtiyojining o‘zaro bog‘liqligi masalasiga ham alohida e’tibor berilgan. Ularda ta’kidlanishicha, agar jamiyatda ma’naviyatga ehtiyoj bo‘lmasa, u hech qachon paydo ham bo‘lmaydi. Ehtiyojning o‘zi ham ma’naviyat darajasi bilan belgilanadi. Ma’naviy kamolotga intilish insonning mohiyati bilan belgilangan fazilatdir. Ma’naviyatning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. “Ma’naviyat insonga xavodek, suvdek zarur” –deb uqtirga “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida. Milliy ma’naviyat bilan umuminsoniy ma’naviyat bir-biridan ajralmasdir. Har ikkalasi ham insonni, millatni kamolotga etkazadi, jamiyatni taraqqiy ettiradi.

“Ma’naviyat-jamiyatning, millatning av ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyatiku idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma’naviyat inson va jamiya madaniyatning negizi, inson va jamiyat hayoti ma’lum yo‘nalishining bosh omilidir. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o‘zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi”(33;46).

Faylasuf olim E.Yusupov “Ma’naviyat inson axloqiva odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy

qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir”, deb ta’rif beradi va ma’naviyat mohiyatini belgilovchi to‘rt tarkibiy qismini: axloq-odob; bilim, ilm va amaliy malakalar, iste’dod, qobiliyat; axloqiy, ilmiy etuklikning natijasi bo‘lgan iyomon, e’tiqod, vijdon, insof, ixlos; inson bilimlari, amaliy tajribasini umumlashtirishga, faoliyatiga yo‘nalish berishga qaratilgan bunyoqarash va mafkuradir, deb ko‘rsatadi

Mazkur olimlar inson ma’naviyatining mohiyati bir-biri bilan uzviy bog‘langan aqliy, axloqiy, ilmiy-amaliy, mafkuraviy fazilatlarning yaxlit tizimi ekanligini ham chuqur tahlil qilib bergenlar. Vatanparvarlk, millatparvarlik, milliy iftixor tuyg‘ulari, ona tiliga hurmat, tabiatni muhofaza etish, har qanday sharoitda ona-yurt ma’naviyatini, davlatimiz mustaqilligini qullab-quvvatlash, sharqona urfatodatlarimizga, qonunlarimizga, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash kabi xislatlarning hammasi ma’naviyat bilan bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida axloq bilan bog‘lanib ketadi.

Xulosa qilib aytganda axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida shaxsning xulq-atvori, intizomi, yurish-turishi va shaxsiy hayotidagi va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi muayyan me’yor va qoidalar sifatida, yosh avlodda, - halollik, poklik, burch, vijdon, e’tiqod, oljanoblik, fidoyilik, Vatanga muxabbat, sadoqat, elni e’zozlash, yo‘qsirlarga ko‘maklashish kabi bir necha insoniy fazilatlarni tarbiyalovchi kuch hamdir. Ahloq yo‘q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqt mukammal ahloq ta’sirida yosh avlod o‘zini, yashash mazmunini va maqsadini, ota-onu, halq, millat, jamiyat oldidagi mas’uliyati va burchini, majburiyatini aniq anglaydi, baxt, iyomon, e’tiqod, diyonat, yaxshilik, yovuzlik, yomonlik,adolat kabi fazilatlarini to‘g‘ri idrok etadi, o‘z-o‘zini idora qilish me’yorlarini tushunib etadi va shuning uchun mohiyatan hamda mazmunan dunyoqarash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Adabiyotlar

- Хожиева М. Ш., Хамраев Б. Т. Нравственное воспитание младших школьников //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 41-45.
- Хожиева, Матлуба Шукuroвна, and Бахтиёр Туйевич Хамраев. "Нравственное воспитание младших школьников." *Вопросы науки и образования* 10 (135) (2021): 41-45.
- Ходжаев Болта Қурбонович, Хожиева Матлуба Шукuroвна. "ФУҚАРОЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ИНСОН ҲАЁТИ ВА ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ ЎРНИ: Ходжаев Болта Қурбонович, педагогика фанлари номзоди, доцент, Бухоро давлат университети, Хожиева Матлуба Шукuroвна, Бухоро давлат университети педагогика кафедраси ўқтувчиси." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 5 (2022): 101-108.
- Musurmonova O. “O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish”–T.: Fan, 1993.
- Karimova O. “Oila huquqi asoslari” –t.: 2003.